



Toshkent viloyati hokimi bo'lgan Yunusxon mashhur shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ona tomondan bobosidir. Shoirning onasini Qutlug' Nigorxonim deyishardi. U o'qimishli va madaniyatli ayol bo'lib,

o'g'lining tarbiyasiga katta e'tibor bergan. Boburning otasi Umarshayx Mirzo esa Farg'ona viloyatining hokimi bo'lgan. U Amir Temurning uchinchi farzandi Mironshohning nabirasi Sulton Abusaid Mirzoning o'g'li edi. Otasi Umarshayx Mirzoning fojiali halok bo'lganidan keyin Bobur otasi o'rniga Farg'ona viloyatiga hokim bo'ladi.

Shu vaqtdan e'tiboran uning davlat arbobi va sarkarda sifatidagi mustaqil faoliyati boshlanadi.



Sirli sandiq

G'iyos Komilov

Qutlug' Nigorxonim o'g'li bilan suhbatda so'rab qoldi:

– Zahiriddin, sizga bir **jumboq** aytsam, topasizmi?

– Ayting, ayajon.

– Bul **ro'yi zaminda** uch shahar bor. Uchovi ham biz uchun jondin-da aziz. Shul shaharlar qaysilar?

– Uch shahar... jondin aziz... – dedi cho'zib Bobur. – Qaysilar bo'lsa ekan?

– Bo‘lmasa bunday: eslaysizmi, besh yashar ekaningizda bir tantanada bo‘lganmiz. Shu voqea qayerda bo‘lgan?

– Ha-ha, esladim, esladim! Samarqandda.

– Ana, topdingiz, – **olmaday taram qizil yuzchasidan** o‘pib qo‘ydi ona o‘g‘lining. – Bul shahar biz uchun nimasi bilan aziz?

– Padari buzrukvorim hazratlari tavallud topganlari bilan-da! – bilag‘onlik bilan tez javob qaytardi Bobur.

– Barakallo! Sirli sandiq uch burov bila ochilur. Siz bir bor buradingiz. Endi ikkinchi topqir burov qiyinlik qilmasa kerak?

– **Mushkul** emas, – dedi Bobur o‘ychan turib.

– U yerda ham bo‘lgansiz. Jannatmonand yurt. Kamoni...

– **Chochiy! Toshkand!** To‘g‘ri-ya, ayajon? Ul yer sizning muborak yurtingiz, aziz ona! – bo‘yini cho‘zib onasining yonog‘idan o‘pib qo‘ydi Bobur.

– Ofarin! Chaqqon topdingiz.

– Kalitini yana bir bor burasam, sirli sandiq ochilurmi, ayajon? – **javdirab tiyrak** boqdi mehriboniga Bobur.

– Ochilur!

– Unday bo‘lsa, uchinchi shahar – bu Andijon!

– Balli! Bul makonda, qantak o‘rikning donasi – siz tug‘ilgansiz!

Ona dilbandini bag‘riga bosib, yuz-ko‘zlaridan o‘pdi.

– Ana, sirli sandiq ham jaranglab ochildi.

U yerda nima bor ekan-a, ayajonim?

Ona jilmayib javob berdi:

– Hazrat otangiz, men va sizning baxtimiz!..



1. Asar qahramonlari haqida nima deya olasiz?
2. Ona va o'g'il nima haqida suhbatlashdi?
3. Nima uchun uch shahar ular uchun jondek aziz ekan?
4. Asarda qanday g'oya yashiringan deb o'ylaysiz?



1. Asardagi ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.
2. Asarni rollarga bo'lib o'qing.



Asar qahramonlariga tavsif bering.

Zahiriddin
Muhammad Bobur

Qutlug' Nigorxonim



Berilgan rasmlar mazmunini bir-biriga bog'lab, og'zaki matn tuzing.



Asarni o'qing. Sirli sandiqda nima yashiringani haqidagi ma'lumotlar bilan asarni davom ettiring.